

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AQLIY FAOLIYATNING O'RNI

Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

Jizzax davlat pedagogika instituti

“Maktabgacha ta’lim” fakulteti,

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası o‘qituvchisi

To‘lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

JDPI “Maktabgacha ta’lim”Fakulteti,

“Maktabgacha ta’lim “ fakulteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda aqliy faoliyatning o‘rniyoritilgan.. Aqliy tarbiya bolalarga tevarakatrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg‘otish, aqliy ko‘nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi. Mana shu nuqtai nazardan maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy tarbiyasini rivojlantirish ta’lim-tarbiya ishlarini yo‘lga quyishda asosiy o‘rinda ekanliglari yoritib berilgan. Hamda maktabgacha ta’limda o‘quv mashg‘ulotlari mobaynida aqliy faoliyatning o‘rni haqida muhim tavsiyalar berilgan.

KALIT SO‘ZLAR: aqliy tarbiya, faol fikrlash, , aqliy mehnat madaniyati, aqliy kamolot, nazariy aql, amaliy aql.

РОЛЬ МЫСЛИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗВИТИИ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДОШКОЛЬНИКОВ

Киличова Мархабо Худайкуловна

Джизакский государственный педагогический институт

Факультет «Дошкольного образования»,

Преподаватель кафедры «Методика дошкольного воспитания»

Туланова Ферзахон Тургунбой кызы

студентка факультета дошкольного образования.

ДжГПИ Факультет дошкольного образования

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрена роль мыслительной деятельности в развитии логического мышления детей дошкольного возраста.. Умственное воспитание предполагает передачу детям знаний об окружающем мире, их систематизацию, стимулирование познавательного интереса у детей, закрепление умственных навыков и умений, развитие познавательных способностей. С этой точки зрения,

развитие психического воспитания детей дошкольного возраста является одним из основных приоритетов в организации учебно-воспитательной работы. Также даны

Ключевые слова: умственное воспитание, активное мышление, , культура умственного труда, умственное совершенство, теоретический интеллект, практический интеллект.

THE ROLE OF MENTAL ACTIVITY IN THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING OF PRESCHOOLERS

annotation

This article examines the role of mental activity in the development of logical thinking of preschool children.. Mental education involves the transfer of knowledge about the world to children, their systematization, stimulation of cognitive interest in children, consolidation of mental skills and abilities, development of cognitive abilities. From this point of view, the development of mental education of preschool children is one of the main priorities in the organization of educational work. Also given are

Keywords: mental education, active thinking, , culture of intellectual work, mental perfection, theoretical intelligence, practical intelligence.

Kilichova Marhabo Khudoykulovna

Jizzakh State Pedagogical Institute

Faculty of Preschool Education,

Teacher of the Department of Preschool Education Methods

Tulanova Ferzakhon Turgunboy qizi

a student of the Faculty of Preschool Education

JSPI Faculty of Preschool Education

KIRISH (INTRODUCTION)

Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak. Maktabgacha ta'lim yoshida

boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur'atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo'riqlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o'ynashiga e'tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o'ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo'ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko'z oldiga aks ettira oladi, amalga oshirishi lozim bo'lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o'zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o'stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san'at kabilarga munosabatni qaror toptiradi. Mazkur vazifalarni maktabgacha ta'lim bilan bog'liqlikda quyida ko'rib chiqamiz. Ilk yoshdan boshlab bolani aqliy tarbiyalashning asosiy vazifasi ularning bilish faolligini oshirishdir. Bilish faolligini oshirish orqali bola uni o'rab turgan tevarak-atrofni o'rganadi. Bola atrof-muhitni o'yin, mehnat, sayr, mashg'ulotlar, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish jarayonida anglab boradi. Bilish faoliyati idrok etish va fikrlash tarzida amalga oshadi. Idrok etish orqali bola narsa buyumlarning tashqi xususiyatlarini (rang, shakl, o'lcham va boshqalar) anglaydi. Mazkur xususiyatlarini aks etishi orqali ongda narsa-buyumning timsoli yaratiladi. Bolaning fikrlashida narsa-buyumlarning ichki, yashirin xususiyatlari, narsa-hodisalar orasidagi sabab-alohadorlik aks etadi. Fikrlashning natijasi so'zlar yordamida ifoda etiladi. Bolalarning fikrlashlari natijasi fikr yoki savol ko'rinishida namoyon bo'ladi. Idrok etish bola hayotining ilk oylaridan shakllanadi, fikrlashning rivojlanishi esa qarib ikki yoshdan boshlanadi. Fikrlashning asosida hissiy (sensor) tajribani chuqurroq bilib olish uchun qo'llaniladigan idrok etish yotadi. Maktabgacha ta'lim yoshida idrok etish tahlil etish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalar chiqarish uchun fikrlashga yordam beradi. Fikrlash esa o'z navbatida idrok etishning takomillashuvi va rivojlanishiga, uning maqsadga yo'naltirilganligi, samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aql – keng ma'noda sezish va idrok etishdan boshlanib tafakkur va hayotni o'z ichiga oladigan bilish jarayonlari yig'indisidir. Aqliy tarbiya – bu aqlni rivojlantirish maqsadida yoshlarga muntazam va maqsadga muvofiq pedagogik ta'sir ko'rsatish. U yosh avlodning insoniyat to'plagan bilimlar, malaka va ko'nikmalarda, qoidalarda o'z ifodasini topgan ijtimoiy-tarixiy tajribani egallashning rejali jarayoni sifatida ro'y beradi. Bu ta'sir kattalar tomonidan amalga oshiriladi va bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlovchi xilma-xil vositalar, metodlar, sharoitlar yaratishni o'z ichiga oladi. Odamning aqli, uning aqliy rivojlanishi, bilimlar hajmi, xususiyati va mazmunida namoyon bo'ladi. Ular aqliy

faoliyatning jo'shqinligida, mustaqil ijodiy bilishga intilishda o'z ifodasini topadi. Aqliy faoliyat diqqatning har doir ma'lum maqsadga qaratilgan bo'lishini talab etadi. Kishining aqli uning asosiy faoliyatida erishgan muvaffaqiyati xususiyati bilan belgilanadi. Aqliy tarbiyasi yetuk, o'tkir zehnli, zukko va zakovatli insonlarni xalqimiz donishmand kishilar deb ataydilar. Donishmandlik – bu donolik. Donolik insonning eng buyuk va olijanob fazilatidir. Donolik shunday bir noyob ne'matdirki, u har kimga ham nasib etavermaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, xalq donoligida «Aql toji oltindan, oltin har kimda ham bo'lmas», - deyiladi. Insoniyat paydo bo'lgandan beri odamlar orasida yetishib chiqqan barcha olimu fozillar, shoiru-yozuvchilarning barchasi mukammal ilm egallash orqali o'z davrining e'tiborli kishilari darajasiga ko'tarilganlar. Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Ali Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy va boshqalar, g'arb olimlaridan Yan Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, J.J.Russo va boshqalar mukammal ilm egallash orqali fanning barcha sohalarida buyuk kashfiyotlar yaratganlar. Tarixan ta'lim-tarbiya maxsus inson faoliyati sifatida shakllanib borish barobarida, ta'lim-tarbiya yakunida tarbiyalanuvchining sifatleri, yani ta'limiy maqsadlar ham aniqlanib bordi.

ASOSIY QISM (MATERIALS AND METHODS)

Aqlni ikki xil kategoriyalarga bo'linadi.

1. Nazariy aql – borliqdagi umumiy narsalarni idrok etishdir.

2. Amaliy aql – buyumlarni tanlashda turtki sifatida ko'rinadigan qobiliyatlardan. O'z davrining yirik ma'rifatchilaridan hisoblangan Abdulla Avloniy ham yoshlarni ilmi bo'lishga chaqiradi. U aql va ilmni ulug'laydi hamda «Aql insonning piri komili, murshidi yagonasidir. Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir» deb yozadi. Muallif o'z fikrini aniqroq va ravshanroq anglashi uchun shunday deb aytadi. «Hayvonlar o'zlariga bo'laklar tarafidan qiladurg'on zulm va jabrlarni shox, tish, tirnoqlari ila qaytarurlar. Lekin inson aql idroki soyasida o'ziga keladurg'on zarar va zulmlardan saqlanur. Yer yuzidagi hayvonlarni asir qilib, bo'ynidan bog'lab iplari uchini qo'llariga bergan insonlarning aqlidir». Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga ta'lim berish g'oyasi birinchi bo'lib chet el pedagogikasida chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) tomonidan yaratilgan. U ona rahbarligida 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ta'lim tarbiya berish mumkinligini ko'rsatib berdi. Shu davrda bolani yoshini e'tiborga olgan holda kishi o'rganishi lozim bo'lgan hamma narsaga o'rganish lozim deydi. Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarga ya'ni biz ta'lim-tarbiya beradigan bolalarga har tomonlama bilim, ko'nikma va malakalarni singdirishimiz mumkin. U 19 bo'limdan iborat maktabgacha ta'lim dasturini tuzdi. Ya.A.Komenskiy «Onalar maktabi» kitobida kichik bolalarni ta'lim-tarbiyasiga, o'qish metodikasiga katta e'tibor bergan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolani faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni sistemalashtirishni, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otishni, aqliy malaka ko'nikmalarini tarkib toptirishni, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bolalarni 6-7 yoshdan boshlab maktabda o'qishga o'tishi munosabati bilan ularni, maktab ta'limiga tayyorlash uchun aqliy rivojlanish yetarli darajada bo'lishini ta'minlash tarbiyachilarning javobgarligini yanada oshiradi. Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib tajribaning boyib

borishi munosabati bilan tarbiyaviy ishlar ta'sirida bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi. Xullas, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularni kelajakdagi butun faoliyati uchun katta ahamiyatga ega. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan tarkib topgan tushunchalar sistemasini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshdagi bola tilini shunchalik egallab oladiki, unda muomala vositasi sifatida erkin foydalanadigan bo'lib qoladi. Aqliy rivojlanish fikrning tengligida voqealarni har xil bog'lanishlarida, munosabatlarda ko'ra bilish, umumiyashtirish qobiliyatida namoyon bo'ladi.

2. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi Aqliy rivojlanish deganda hayotiy ta'sir etish va oqibatlarning barcha miqdoriy imkoniyatlari natijasida kelib chiqadigan aql kuchi hamda fikrlashning rivojlanish jarayonini tushunish mumkin. Aqliy rivojlanish atamasi bilan bir qatorda "aqliy kamolot" atamasi ham qo'llaniladi. Aqliy kamolot – bu yoshning o'sib, tajribaning boyib borishi munosabati bilan bolaning aqliy faoliyatida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlarining majmuasidir. Maktabgacha ta'lim yoshida bilimlar tez sur'atlar bilan boyib boradi, nutq shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning aqliy rivojlanishini ta'minlash ularning kelajakdagi butun faoliyatlari uchun katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bola ijtimoiy muhit ta'sirida aqliy tomondan rivojlanib boradi. Tevarak-atrofdagi kishilar bilan muomala qilish jarayonida u tilni va u bilan birga tarkib topgan tushunchalar tizimini o'zlashtiradi. Natijada maktabgacha ta'lim yoshidayoq bola tilni shunchalik egallab oladiki, undan muomala vositasi sifatida erkin foydalana oladigan bo'lib qoladi. XX asrning so'ngi choragida psixologik va pedagogik adabiyotlarda ta'lim jarayonining samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik yondoshuv va tamoyillarni amalga oshirish ko'plab ta'riflanganligini ko'rish mumkin. Jumladan, "aqliy rivojlanish" tushunchasi keng qo'llaniladi, lekin qanday belgilariga ko'ra inson aqli, uning aqliy rivojlanish darajasi haqida fikr yuritish mumkin degan savolga bir mazmunli javob berilmaydi. Barcha psixologlar aqliy rivojlanishda ta'lim asosiy, hal qiluvchilik rolini o'ynashini e'tirof etadi. Bu insonning ijtimoiy tabiatidan kelib chiqadi. Ma'lumki, insonning psixik rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarda aniqlanadi. O'z hayotining birinchi kunidanoq bola kattalar ta'siri ostida ijtimoiy tajribani o'zlashtira boshlaydi. Bu tajribalarni o'zlashtirish jarayonida bolaning aqliy rivojlanishi, uning insoniy qobiliyatlarining shakllanishi sodir bo'ladi. Olimlar orasidagi ba'zi xilma-xillik aqliy rivojlanishda bilimlarning roli qandayligi haqidagi masalani keltirib chiqaradi.

Aqliy rivojlanish – inson psixikasining individual o'ziga xosliklaridan, u yashayotgan ijtimoiy-tarixiy sharoitlar bilan bog'liqlikda hayotiy tajribalarni oshib borishi va uning yoshi bilan aloqadorlikdagi intellektual faoliyatidan kelib chiqadigan miqdoriy va sifat o'zgarishlarining murakkab dinamik tizimi. Insoniyat tajribasini qanchalik o'zlashtirganlik aqliy rivojlanishda hal qiluvchi omil sifatida aks etadi. Amaliy bilimlar zahirasi aqliy rivojlanishning tuzilishiga kiruvchi tarkibiy qismlardan biri sifatida qaralishi kerak. Amaliy bilimlar zahirasi bilan bir qatorda aqliy rivojlanishning tuzilishida ta'lim

olganlik o'z aksini topadi. Ta'lim olganlik – bu aql sifatini shakllantiruvchi shaxs intellektual xususiyatlarining tizimi. Aqliy rivojlanish quyidagi tushunchalar tizimini o'z ichiga qamrab oladi: aqlning teranligi bola yangi materialni egallashi mumkin bo'lgan belgilarning muhimligi uni o'zlashtirish bosqichi va ularning umumlashganlik darajasida namoyon bo'ladi; aqlning sustligi qarama-qarshilikda: bir qoliplikka, fikrlashdagi odatiylikka moyillikda, bir harakatdan tizimidan boshqasiga o'tishdagi qiyinchilikda namoyon bo'ladi; fikrning moslashuvchanligi maqsadga muvofiq o'zgaruvchanlikni talab etadi; aqlning barqarorligi bolaga vazifalarni fikriy hal etish, ularning butun belgilarini xotirada eslab qolishga imkon beradi. Bu sifat tasniflashga oid biror vazifani hal etishda aniq ko'rinadi; fikriy faoliyatning anglanganligi – uning mahsuli sifatida so'z orqali ifoda etish imkoniyatida aks etadigan aqlning sifati; aqlning mustaqilligi – yangi bilimlarni, vazifalarni hal etishning yangi yo'llarini faol izlashda namoyon bo'ladi; fikrning tejamkorligi – kam vaqt sarflab yetarlicha bilimlarni egallay olishda aks etadi. Aqliy tarbiya deganda ta'lim oluvchining intellekti, bilish imkoniyatlarini, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi tushuniladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni aqliy tarbiyalash bolalarning faol fikrlash faoliyatini rivojlantirishga kattalarning ma'lum maqsad bilan ta'sir etishidir. U bolalarga tevarak-atrofdagi olam haqida bilimlar berishni, ularni tizimlashtirish, bolalarda bilishga qiziqish uyg'otish, aqliy ko'nikma va malakalarni tarkib toptirish, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berishni to'g'ri tashkil etish uchun ularning aqliy rivojlanish qonuniyatlari va imkoniyatlarini bilish kerak.

Aqliy tarbiya vazifalari Aqliy tarbiyaning umumiy vazifalariga quyidagilar kiradi:

- belgilangan hajmdagi ilmiy bilimlarni egallash;
- dunyoqarashni shakllantirish;
- aql kuchi, iqtidor va qobiliyatlarini rivojlantirish;
- bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirish;
- shaxs salohiyati imkoniyatlarini rivojlantirish;
- bilish faoliyatini shakllantirish;
- doimiy ravishda o'z bilimlarini to'ldirish, umumta'limiy tayyorgarlik darajasini oshirish ehtiyojlarini rivojlantirish;
- ta'lim oluvchilarni bilish faoliyati metodlari bilan qurollantirish;
- fikrlash qobiliyati, ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish. Bolani maktab ta'limiga tayyorlashda aqliy tarbiyaning ahamiyati kattadir. Bolani bilimlarini egallab olishlari ularni aqliy faolligini rivojlantirish aqliy malaka va ko'nikmalarini egallab olishlari ularni maktabda muvofaqqiyatli o'tishlari uchun bo'lajak mehnat faoliyatiga tayyorlanishida manba bo'lib xizmat qiladi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o'rta qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kiradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR (RESULTS AND DISCUSSIONS)

Maktabgacha ta'lim yoshida boshqa yosh davrlariga qaraganda aqliy rivojlanishning yuqori sur'atda taraqqiy etishi kuzatiladi. Ayniqsa, ilk yosh guruhi bolalarining aqliy rivojlanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Zamonaviy tadqiqotlar natijalari hamda shu

bilan bir qatorda M.X.Qilichova[2]lar ilmiy izlanishlar olib borgan. B.E.Parmonov Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning psixologik jihatlarini maqolasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini yoritgan. Jumladan, Buyuk Britaniya, Rossiya federatsiyasi, Yaponiya, Germaniya kabi davlatlarining ilg'or tajribalarini tahliliy o'rgangan. I.G. Mamajonov, R.Mamatovlar esa Germaniya davlati ta'lim tizimini o'rganishda qisman maktabgacha ta'lim tizimiga oid ma'lumotlarni kiritib o'tgan. M.X.Qilichova maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida amalga oshirilgan islohotlarning mazmun- mohiyatini hamda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni tarbiyalashda xorijiy tajribalarning o'ziga xos jihatlarini[6]ni o'rgangan. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim standartlariga ko'ra maktabgacha ta'lim — maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy, va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon[7] hisoblanadi deb takidlagan. Ikki yoshgacha bolalarda juda katta hajmdagi bilish faolligi kuzatiladi. Bolaning ongi tez rivojlanib, u uch yoshga kelganda katta kishilarning aql kuchining sakson foiziga tenglashadi. Mazkur holat maktabgacha yoshdagi bola ongining ortiqcha zo'riqishlardan asrashni talab etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishida yo'l qo'yilgan kamchiliklarni keyinchalik bartaraf etish qiyin kechadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida yo'l qo'yilgan kamchiliklar kelajakda bolaning har tomonlama rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotida bolaning qurilish materiallari, konstruktorlar bilan o'ynashiga e'tibor qaratmaslik oqibatida maktabda geometriya, chizmachilik kabi fanlarni o'zlashtirishda qiyinchilik tug'diruvchi fazoviy idrok etishning rivojlanmasligiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagi bolaning aqliy rivojlanishidagi asosiy o'ziga xoslik – obrazli bilish shakllarini (idrok etish, obrazli fikrlash, tasavvur) egallashda yorqin namoyon bo'ladi. Bolada rivojlanadigan bilish jarayonlari xilma-xil faoliyat turlarida aks etadi. Bolada tasavvurning rivojlanishi orqali u faoliyatning manzarasini ko'z oldiga aks ettira oladi, amalga oshirishi lozim bo'lgan ishni rejalashtiradi, undan nima talab qilinayotganligini aniqlay oladi. Bola o'zlashtirayotgan bilimlar faqatgina uning fikrlash doirasini o'stiribgina qolmay, balki kishilarga, ularning xatti-harakatlariga, tabiat, san'at kabilarga munosabatni qaror toptiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi dastlab muomalada bo'lish, narsalar bilan bajariladigan faoliyat natijasida keyin esa o'quv mehnat, samarali faoliyatlar jarayonida (rasm chizish, loy) amalga oshirib boriladi. Hozirgi zamon pedagogika fani bilimlar sistemasini uzlashtirib olish, ularni jamg'arish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish hamda yangi bilimlar hosil qilish uchun zarur bo'lgan bilish faoliyati usullarini egallab olish aqliy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari deb hisoblanadi. Aqliy tarbiyaning vazifasi uning mazmuni, metodi va tashkil etilishiga qarab belgilanadi. Pedagogika-psixologiya fani aqliy tarbiya berish vazifalarini samarali xal etishda birinchidan bolaning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish, ikkinchidan bola organizmining umumiy charchashiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan ortiqcha zo'riqish bo'lmasligi yo'llarini topish uchun maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanishi qonunlari va imkoniyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi. Keyingi yillarda olib borilgan psixologik-pedagogik tadqiqotlarning natijalari maktabgacha tarbiya yoshi davrida bolalarning aqliy rivojlanishida juda katta

imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Bularning hammasi maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga beriladigan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, hajmini kengaytirish maqsadga muvofiq. Maktabgacha ta'lim yoshining oxiriga kelib bolalar tevarak atrof to'g'risida kattagina hajmdagi eng oddiy bilim va tushunchalarga ega bo'lib qoladilar, asosiy fikrlash jarayonini egallab oladilar, narsa va buyumlardagi voqealardagi muhim va muhim bo'lmagan tomonlarini ajrata oladigan ba'zi bir sabab natijali bog'lanishlarni bilib oladigan bo'lib qoladilar. Ular o'quv faoliyatining dastlabki ko'rsatkichlari shakllandi. Shuning uchun bog'cha yoshidan boshlab rivojlantirib borish katta ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya yoshining dastlabki bosqichlarida bolalarda tasavvur ta'limi bo'ladi. Hayotiy tajribaning ortib borishi va tafakkurning rivojlanishi bilan ijodiy hayol tarkib topadi. Kichik maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun ko'rgazmali-harakatli, ko'rgazmali obrazli tafakkur xosdir. Buning asosida so'z, mantiqiy tafakkur, tushunchali tafakkur rivojlantiriladi. Tarbiyachi bolalarda analitik-sintetik tafakkur faoliyati tarkib toptiriladi bu hodisalarni, voqealarni, chuqur anglab olish, ularni muhim bo'lgan va muhim bo'lmagan tomonlarini ajratishga o'rgatish lozim. Qiziquvchanlik bolaga xos xususiyatdir. U bolani tevarak-atrofdagi voqea xodisalarga, narsa va buyumlarga qiziqish bilan qarashga, hamma narsani ushlab his kilib, diqqat bilan tomosha qilishni kuzatishda namoyon bo'ladi. Tarbiyachi kuzatishlar tashkil etib, bolalarda paydo bo'lgan savollarga o'z vaqtida javob berishga harakat qiladi, ularni fikrini mustaqil javob qidirishga yo'llab, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda qiziquvchanlikning susayishiga yo'l qo'ymaydi. Aqliy tarbiyaning vazifasi bolalar qiziquvchanligini ular aqlining sinchkovligini rivojlantirish va shular asosida bilishga qiziqish hosil qilishdan iborat. Bolalar bog'chasi oldida bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantirish vazifasi turibdi. Qobiliyatlar tegishli faoliyat jarayonida namoyon bo'ladi va rivojlanadi. Insonning aqliy qobiliyati aqlining ziyraklik – fahm farosatlilik, tanqidiy ko'z bilan qarash, sermulohazalik kabi sifatlari bilan ajralib turishi mumkin. Aqliy ko'nikma va malakalarni rivojlantirish, ya'ni eng oddiy faoliyat usullari, predmetlarni tekshirish, ulardagi muhim va muhim bo'lmagan belgilarni ajratib ko'rsatish boshqa predmetlar bilan taqqoslash va hokazolarni tarkib toptirish maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga aqliy tarbiya berish vazifalaridan biridir. Bu ko'nikma va malakalar bilish faoliyatining tarkibiy qismlari bo'lib, bolani bilimlarini muvaffaqiyatli egallab olishga yordam beradi. Masalan: o'simliklar va hayvonlar bilan tanishtirish bo'yicha sistemali mashg'ulotlar olib borilgandan keyin bolalar ayrim konkret o'simliklar yoki hayvonlar to'g'risida ma'lum bir tasavvurga ega bo'ladilar. So'ngra bolalardagi aqliy-ko'nikma va malakalarni rivojlantirish maqsadida tarbiyachi bolalar bilan quyidagi mashg'ulotlarni o'tkazishni rejalashtirishi mumkin. Eng muhimi shundaki, bolalarga bilim beribgina qolmasdan, ularni olgan bilimlaridan aqliy va amaliy vazifalarni xal etishda foydalanishga o'rgatish zarur. Ilk va bog'cha yoshi davrida bolalarda tevarak-atrofga bo'lgan qiziqish juda tez o'sadi. Qiziqish bolaning aqliy rivojlanishini harakatga keltiruvchi qudratli kuchdir. Kattalar bolaning qiziquvchanligini, bilishga bo'lgan har qanday hoxishini sezishlari va rag'batlantirib borishlari kerak.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa o'rnida shularni takilab o'tosh lozim, odamning aqliy faoliyati – bu umumiy ham maxsus aqliy harakatlar xilma-xil sistemalarining katta miqdoridir. Ko'pgina vazifalarni hal etishda qo'llaniladigan keng ko'lamdagi aqliy harakatlarni shakllantirish ayniqsa muhimdir. Bunday harakatlarga tahlil, qiyoslash, umumlashtirish kiradi. Ham umumiy, ham maxsus aqliy harakatlarni egallash aqliy faollik va mustaqillikning rivojlanishini ta'minlaydi. Aqliy faoliyatning moslashuvchanligi va jo'shqinligini, hodisalarni xilma-xil aloqalar va munosabatlarda ko'ra bilishni shakllantirishga yordam beradi. «Aqliy mehnat madaniyati» tushunchasiga aqliy faoliyatning umumiy tartibliligi, rejaliligi, vazifani qabul qilish va o'rtaga qo'yish, uni hal etish usullarini tanlash, ishlab chiqilgan harakat rejasini izchil amalga oshirish natijalarini baholash mahorati kirar ekan demak, Aqliy mehnat madaniyati aqliy faoliyatning maxsus malakalari va ko'nikmalarini, kitob bilan ishlash ko'nikmalarini egallash darajasi, ilmiy bilish usullari va metodlarini, turli yordamchi vositalardan foydalanish bilan ham bog'liqdir. Aqliy tarbiya vazifalaridan har biri maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashni tashkil etishda hisobga olish lozim bo'lgan bir qancha vazifalarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy tarbiyalashning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat. Boladagi qiziquvchanlik va aqliy faollikning qay darajada rivojlanganligini bolaning aqliy ko'rsatkichining yuqoriligida ko'rish mumkin.

Shunday qilib MTMning pedagogik jarayonda o'yin jarayonida, maktabgacha yoshidagi bolalarni aqliy rivojlanishiga katta ahamiyat qaratish lozimdir.

O'qituvchi: Qilichova Marhabo Xudoyqulovna

To'lanova Feruzaxon Turgunboy qizi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Prezident Sh.Mirziyoyev olimlar va yoshlar bilan fikr almashdi. 31.01.2020. <https://uza.uz/uz/posts/>
2. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии.: Издательство: Питер, 2002 г. 720 стр. <http://yanko.lib.ru>
3. Леонтьев А.Н. Проблемы развития психики.: Издательство: МГУ. 1981, С.56
4. Л.С. Виготский Мышления и речь.: Издательство: Питер, Москва. 2017, С.221
5. Djanpeisova G.E., Jo'raeva N.T. Matematik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi. O'quv-uslubiy majmua. Toshkent-2018. 20-22-betlar.
6. Xaliqov F, Qilichova M. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarida ijodiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish usullari. Maktabgacha ta'lim elektron jurnali. Jizzax. 2021.09.11.

7. Qilichova, M. (2021). MAKTABGACHA TA'LIMDA ELEMENTAR MATEMATIK TUSHUNCHALARNI RIVOJLANTIRISH MUAMMOLARI. *Мактабгача таълим журнали*, 4(Preschool education journal).
8. Kilichova, M. K. (2021). LITTLE FEATURES OF FOREIGN EXPERIENCE IN EDUCATION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(10), 241-246.
9. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy rivojlanishining o'ziga xosliklari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
10. Qilichova, M. (2021). Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning rivojlanish yoshi va o'ziga xos xususiyatlari. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal).
11. Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG 'OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746.
- Qilichova, M. X. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYANING XORIJ DAVLATLARDAGI ILG 'OR TAJRIBALARI. *Academic research in educational sciences*, 2(11), 739-746.6.
12. Qilichova, M. X. (2021). TA'LIM-TARBIYA JARAYONIGA INTEGRATSION YONDASHUVNING MAZMUNI. *Academic research in educational sciences*, 2(10), 917-921.
13. Kilichova, M. K. (2021). Issues of formation of ecological knowledge and culture in preschool educational institutions. *ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH*, 10(4), 666-670.